

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 963,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 10,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 120,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,0 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



110,5 %

29 963,6 mlrd. so'm



120,5 %

9,0 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mird. so‘m		<i>O’sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	22 501,0	29 963,6	110,5
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	22 276,8	29 731,8	110,5
mahsulotlarga sof soliqlar	224,2	231,8	111,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	22 276,8	29 731,8	110,5
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 334,7	1 573,6	104,3
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	17 732,6	24 331,2	111,3
sanoat	16 895,4	23 335,0	111,4
qurilish	837,2	996,2	109,9
xizmatlar	3 209,5	3 827,0	108,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	947,9	1 150,1	111,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	431,5	545,0	117,7
boshqa xizmat tarmoqlari	1 830,1	2 131,9	104,8

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 27 314,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	99,0	99,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1,0	0,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	6,0	5,3
sanoat (qurilishni qo’shgan holda)	79,6	81,9
sanoat	75,8	78,5
qurilish	3,8	3,4
xizmatlar	14,4	12,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4,3	3,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,9	1,8
boshqa xizmat tarmoqlari	8,2	7,1



2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 99,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 5,3 % ni, sanoat tarmog'i 78,5 % ni, qurilish 3,4 % ni va xizmatlar sohasi 12,8 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2024- yil



6,0 % Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

1,0 %

75,8 % Sanoat

3,8 % Qurilish

14,4 % Xizmatlar

2025- yil

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

5,3 %

0,8 %

Sanoat

78,5 %

Qurilish

3,4 %

Xizmatlar

12,8 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 8,5 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 5,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



10,5 %

Sanoat




8,5 %

Xizmatlar



1,2 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,3 %

Qurilish



0,4 %

Mahsulotlarga sof soliqlar



0,1 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 5,3 %), sanoatda – 111,4 % (78,5 %), qurilishda – 109,9 % (3,4 %), xizmatlar sohasida – 108,4 % ni (12,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1 % (3,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,7 % (1,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8 % dan (7,1 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



6,6 %

YAHM

10,5 %



4,2 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,3 %



7,3 %

Sanoat

11,4 %



7,1 %

Qurilish

9,9 %



4,2 %

Xizmatlar


8,4 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 120,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 124,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,0 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 5 338,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 4 621,4 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 18,0 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 20,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʼliq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2024- yil

4 621,4

20,7 %

2025- yil

5 338,8

18,0 %

